

## HIND- YEVROPA TILLARIDA ABLAUT VA UMLAUT HODISASI

Kadirova Ulfatoy Shavkatbek Qizi

Andijon Davlat Universiteti Kompyuter Lingvistikasi Yo'nalishi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20269620>

**Annotatsiya:** Lingvistikada tovush o'zgarishlari so'zning shakllanishi, ma'no anglatish vositasi grammatik toifalarning farqlanishida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, hind-yevropa tillarining tarixiy taraqqiyotida ayrim fonetik hodisalar tilning morfologik tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Mazkur maqolada shunday hodisalardan eng muhimlari – ablaut va umlaut xususida fikr yuritiladi

**Kalit so'zlar:** ablaut, umlaut, apofoniya, assimilatsiya, turkiy tillar, singarmonizm

**Аннотация:** В лингвистике звуковые изменения играют важную роль в формообразовании слов, выражении значения и различении грамматических категорий. Особенно это касается исторического развития индоевропейских языков, где некоторые фонетические явления оказали прямое влияние на морфологическую систему языка. В данной статье рассматриваются наиболее важные из таких явлений — аблаут и умлаут.

**Ключевые слова:** аблаут, умлаут, апофония ассимиляция, тюркские языки, сингармонизм.

**Abstract:** In linguistics, sound changes play an important role in the formation of words, the expression of meaning and the distinction of grammatical categories. This is especially true of the historical development of the Indo-European languages, where some phonetic phenomena had a direct impact on the morphological system of the language. This article discusses the most important of these phenomena — ablaut and umlaut.

**Key words:** ablaut, umlaut, apophony assimilation, Turkic languages, harmonism.

Ablaut nemischa “Ablaut” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ab- “pastga, dan”, laut “tovush”, “aks-sado” degan ma'noni anglatadi. Bu so'z oldingi nemis grammatikachilari tomonidan kuchli va kuchsiz fe'llarga nisbatan qo'llanilgan. Tilshunoslar ablautni dastlab sanskrit, lotin, qadimgi yunon tillarida aniqlaganlar. Ablaut tushunchasi 1819-yilda Yakob Grimm tomonidan hind-yevropa tillaridagi kuchli fe'llarning o'zgarishida asosiy tovushlarning almashishini ko'rsatish uchun ya'ni grammatik tizimlarini tavsiflash uchun ishlatilgan. Ablaut hind-yevropa tillarida, ayniqsa, german tillarida uchraydigan hodisadir. Uning xitoy-tibet tillarida ham uchrashi kuzatilgan.

Ablaut – so'z o'zagidagi unlini o'zgartirish orqali yangi grammatik shakllarni hosil qilishdir. Ablaut apofoniya deb ham nomlanadi. Bu o'zgarishlar morfologik shakllanishiga bevosita bog'liq bo'lib, tilning fonetik rivojiga bog'liq emas. Unli tovushning bu almashishi fe'llarda aniq ko'rinadi. Masalan rus tilida **нести-носить-ноша-перенос** (tashish), **собирать - соберу- сбор-собрать** (yig'moq), nemis tilida **beginnen-begann-begonnen** (boshlamoq), **schwimmen-schwamm-geschwommen** (suzmoq) ingliz tilidagi notog'ri fe'llar **drive- drove- droven** (minmoq), **drink-drank-drunk** (ichmoq) o'zakdagi unlilar almashishi orqali ablaut hodisasi kuzatiladi.

Ablaut hodisasining sifat va miqdoriy turi mavjud. Sifatli ablautda unli tovushlarning (i→a→u) sifati o'zgaradi: **binden-band, trinken-trank; take-took**. Miqdoriy ablautda esa uzunligi bo'yicha bir xil sifatdagi turli unlilarning (e→ē→o) almashinishi ifodalanadi: **ritan - reiten - geritten** (minmoq), **nehmen-nahm-genommen** (olmoq)

Umlaut – bu unilarning assimilatsiyasi yoki uyg'unligi bo'lib, tarixiy jihatdan bu ko'p german tillaridagi fonetik o'zgarishdir.

Umlaut 3 xil hodisaga ishora qilib, bugungi kunda bu atama nemis tili fonemalarida a,o,u dan ö, ä, ü o'tishini ko'rsatadi. Umlautlar harfning yuqori qismida diakritik belgi bilan tavsiflanadi.

Umlaut nemis tilida boshqa unli tovushni ko'rsatish uchun ishlatilib, so'zning ma'nosini butunlay o'zgartirishi mumkin. Ushbu umlautlarning har birida ikkita variant bo'lib, qisqa va uzunligi bilan farqlanadi. Qisqa umlautlarda o'zgargan tovushlar tezroq talaffuz qilinsa, uzun umlautlar biroz cho'zib talaffuz qilinadi. Odatda umlautlar german tillarida birlik va ko'plikni **Haus** (uy) **Häuser** (uyalar), **Hand** (qo'l)- **Hände** (qo'llar) kabi, hozirgi va o'tgan zamoni **Schlafen** (uxlash) va **Schläft** (uxlash), **Haben** (bor) va **Hätten** (bor edi), sifat darajalarini **alt** (qari) **älter** (qariroq), **jung** (yosh) **jünger** (yoshroq) farqlash uchun ishlatiladi.

Ingliz tilida umlaut hodisasi faol ishlatilmasa-da, **man-men, foot-feet, tooth-teeth, mouse-mice, goose-geese** o'zgarishining ablaut hodisasi emas, umlautning tarixiy izi degan qarashlar mavjud.

Daslab german tilshunosligiga oid bo'lgan umlaut atamasi keyinchalik turkiy tillarning fonetikasida ham uchraydi. Bu hodisa unlining boshqa bir unli ta'sirida fonetik o'zgarishga uchrashi bilan izohlanadi. Tilshunos B.A. Serebrennikov umlautni turkiy va ayrim fin-ugor tillaridagi singarmonizm hodisasining turlaridan biri sifatida baholaydi. Qadimgi uyg'ur tilida umlaut hodisasi teskari singarmonizm nomi bilan ham yuritiladi.

Mazkur fonetik hodisa zamonaviy o'zbek tilining ayrim hududiy shevalarida, jumladan Namangan va Paxtabod shevalarida ham kuzatiladi. Bu shevalarda unilar o'rtasida yuz beradigan fonetik ta'sirlar so'zlarning standart adabiy shakldan farq qiluvchi talaffuziga olib keladi.

Professor A. Ne'matov umlaut hodisasini palatal, labial va lingvial turlarga ajratadi. Bu tasnif umlautning yuzaga kelishida ishtirok etuvchi unli tovushlarning artikulyatsion belgilari asosida belgilanadi.

Masalan, Namangan shevasida “olma” so'zining birinchi bo'g'inidagi orqa qator keng unli (“o”) ikkinchi bo'g'indagi keng, lablanmagan old unli ta'sirida old qator keng unli (“e”)ga almashadi. Natijada bu so'z “elma” shaklida talaffuz qilinadi. Xuddi shunday fonetik o'zgarish Paxtabod shevasida ham kuzatiladi: masalan, “qora” so'zida orqa qator quyi keng unli (“o”) keyingi bo'g'indagi tor unli ta'sirida old qator o'rta keng unli (“e”)ga aylanadi va so'z “qera” tarzida talaffuz etiladi.

Shunday qilib, o'zbek tilining ayrim hududiy shevalarida uchraydigan umlaut hodisasi bu shevalarning fonetik tizimidagi tashqi tovush ta'siri va unilar o'zaro aloqasi asosida shakllanayotgan dinamik jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Fonetik va morfologik o'zgarishlarning muhim shakli hisoblangan ablaut va umlaut hodisalari german tillarining tarixiy rivojida katta o'rin tutadi. Ablaut va umlaut hodisasi nemis tilining grammatik qoidalari bo'lib, nemis tiliga o'ziga xoslik baxsh etadi.

### References:

1. Dadaboye H. Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi Toshkent-2015
2. Nurmonov A. Tanlangan asarlar I jild Toshkent-2012
3. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish Toshkent-2007
4. Гухман М. Сравнительная грамматика германских языков том 5 Москва-1962